

OTA-ONA VA BOLALAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR

Umurzakova Nargis Muxtarovna

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

“Gumanitar fanlar” kafedrasida katta o'qituvchisi

Nuriddinova Farangiz Ulug'bek qizi

[Mobil:+998990129077. E-mail:nargisau71@gmail.com]

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

“Huquq va turizm” fakulteti

“Yurisprudensiya” yo'nalishi 1-kurs talabasi

[Mobil:+998930736621.E-mail:farangiznuriddinova5@gmail.com]

Annotatsiya: Ushbu maqolada ota-ona va bolalarni huquqlari mamlakatimizda dolzarb muammolaridan bir bo'lagi va eng asosiy tarkibiy qismidir. Chunki ota-ona bolalarni voyaga yetgunga qadar tarbiyalash, boqish ta'lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratib berish kerak. Ota-ona ularga tarbiya berishlari uchun o'zlari bilimli bo'lishi kerak. Oilaviy baxt tushunchasi, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat mentalitetimizga xos tushunchalar bo'lib, u asrlar osha avloddan –avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatimizning ajralmas bo'lagi va eng asosiy tarkibiy qismidir. Ota-ona va bolalarning kelishmasliklari diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Аннотация В этой статье рассматривается разветвление и наиболее фундаментальная составляющая актуальных проблем материнства и детства в нашей стране. Потому что родители должны создавать условия для воспитания детей до достижения ими совершеннолетия. Понятия семейного счастья, взаимоуважение между членами семьи – это менталитет, который является неотъемлемой частью и важнейшей составляющей нашей национальной ценности, которая веками передается из поколения в поколение. Отец становится центром разногласий между матерью и детьми.

Anotation: In this article, the rights of parents and children are an offshoot of the pressing problems in our country and the most basic component. Because it is necessary to create prerequisites for the parent to be able to educate and support children until they reach adulthood. The concept of family happiness, mutual respect between family members is a concept characteristic of mentalities, it is an integral part and the most fundamental component of our national value, which is passed down from generation to generation over the centuries. The fact that parents and children do not agree is becoming the center of attention.

Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo'lmagan. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichlarida kishilar to'da- to'da bo'lib yashayotgan davrda jinslar orasida munosabatlar muayyan tartib qoidalarga ega bo'may, to'dagi barcha ota- onalar o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. Ota- ona bolalar munosabatlarini tarixiy tarzda o'rganadigan bo'lsak ota- onaning bolaga yondashuvi turli bosqichlarni boshdan kechirgan.

Olimlarning tavsiflashicha antik davrlarda ota- onalar farzandlarining jamiyatdagi tutajak o'rinlari, ularning ijtimoiylashuviga alohida e'tibor bera boshlaganlar. Ayrim xalqlar bolaga u kichikligidan juda katta mehr va g'amxorlik ko'rsatadi, taxminan o'smirlik davridan boshlab, uning erkinligi tan olinadi va ota-ona tomonida beriladigan tarbiya uslublari o'zgartirilib, unga kattalarcha munosabatlar bilan qarashlik lozim. Ota- onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar bu murakkab munosabatlar tizimi, tarbiya psixologiyasi o'rganishning predmeti bo'lib uning maqsadi ota- onalar va bolalar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish mexanizmlarini avlodlarning o'zaro ta'sirini aniqlashdir. Shu bilan birga Jinoyat kodeksining 122-moddasida shunday keltirilgan; Moddiy yordamga muxtoj bo'lgan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib 3 oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik- eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha miqdorda jarima yoki 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 6 oygacha qamoq bilan jazolanadi. O'sha qilmish xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa,- 2 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash yoxud 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Ota- onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarda kattalar tomonidan qilingan asosiy xatolar ko'p xollarda ota- onalar bolaligidan boshdan kechirgan xafagarchiliklarni, qarama-qarshiliklarni, nizolar oqibatida yangi oilaviy munosabatlarni rejasiga o'tkazishiga olib keladi. Oilaviy nizolar oqibatida ro'y berayotgan holatlarni, oilalarning barbod bo'lishi millatlar davlatlarning o'zaro kelishmovchiligi yoshlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 71- moddasiga keltirilgan ya'ni "ota- onalarga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar. Ushbu bobda nazarda tutilgan ota-onalik huquqlari bolalar o'n sakkiz yoshga to'lganlarda, shuningdek voyaga yetmagan bolalar nikohga

kirganlarida hamda qonun bilan belgilangan boshqa hollada bolalar voyaga yetmasdan to'la muomala layoqatiga ega bo'lganlarida tugaydi. Bu borada oilaviy munosabatlarning ota ona va farzand munosabatlari ko'rinishida yuzaga keladigan nizolarning kelib chiqish sabablarini o'rganish masalalarini dolzarb muammolardan sanaladi. Bundan shuni tahlil qilish mumkinki, oilada otalarning farzandlar bilan muloqatining kamligi bola bilan yetarli emasligi hamda oilalardagi ajralishlar natijasida farzandlar bilan otalarning o'zaro kelishmovchiliklari kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Demak ota ona va o'smirlar o'rtasida nizolarni bartaraf etishda ota ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlar kelmasligi uchun har bir omillarga keltirilgan sabablarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi nizolarning kelib chiqishiga ta'sir qiluvchi psixologik, iqtisodiy, ijtimoiy, tarbiyaviy, gender xususiyatlari va jismoniy omillar ta'siri natijasida oiladagi farzandning qiz bola va o'gil bolaga ajratilishi shu asosda o'zaro munosabatlarni shakllantirish o'rtasidagi nizolarni yuzaga chiqishi bilan xarakterlanadi. Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ota-onaning huquq va majburiyatlari Oila kodeksini 74-moddasida shunday keltirilgan; bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatiladi. Ota-onalar o'z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanadilar hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda shu jumladan sudga alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar. Vasiylik va homiylik organi tomonidan ota-onalar va bolalar manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik borligi aniqlanganda ota-onalar o'z bolalarining himoya qilishga haqli emas. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar mavjud bo'lganda vasiylik va homiylik organi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun vakil tayinlanishi lozim. Hayotga tayyorlamoqchi bo'lgan ota-onalar jismoniy kuch ishlatib qattiqqo'llik qilib qo'yishadi. Tarbiya berishda ko'pchilik ota-onalar bolani urib tarbiyalashadi, chunki bu yo'l orqali bolani bo'ysundirish oson. Bola sizga qarshi so'z bilan javob qaytarolmaydi qarshi chiqmaydi. Urish jazolash bolani sindiradi. O'sayotgan daraxtni to'g'rilayman deb sindirib qo'yishadi. Bolani bir necha marta uradi, yig'laydi lekin ota-onani aytganini qiladi. Vaholanki, uning ichki kechinmalarini his qilib ko'rishmaydi. Bolani urish u yoqda tursin, qo'pol gap bilan tarbiyalashning o'zini qoralamayman lekin bolani xatosini aytish kerak. Oila va oilaviy an'analar farzand tarbiyasining asosidir. Zero, bola aynan oiladagi odamlar bilan muloqot qilishning ilk

tajribasini o'rganadi. Insoniy munosabatlarga ega bo'lish uchun oila an'analar va urf odatlari jamiyat bilan normal munosabatda bo'lishga, yaqin oila qurishga, oilaviy rishtalarni mustahkamlashga, o'zaro tushunishni yaxshilashga va janjallarni kamaytirishga yordam beradi. Oilaviy tarbiya an'analari mavjud bo'lgan va amalda bo'lgan oila davralarida bolalar ota-onalarning fikrini tinglaydilar, ota-onalar esa bolalarning muammolariga e'tibo berishadi va ularni yengishda yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 65-moddasiga ko'ra, har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega, bola manfaatlariga zid bo'lgan holatlar bundan mustasnodir. Bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o'z manfaatlarini ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega. Shuningdek, oilaviy bolalar uylarida tarbiyaga olingan bolalar mahalla hayotiga yaqindan jalb etiladi, undagi turli marosimlarda bevosita ishtirok etib, oiladagi va mahalladagi yoshi ulug' otaxon-onaxonlarning pand nasihatlaridan bahramand bo'lib u yerda axloqiy, ma'naviy va jamoaviy tarbiya ko'radi

Hozirda vasiylikka va homiylikka berilgan ya'ni oila tarbiyasiga berilgan bolalar soni 139.nafarni tashkil etadi. 640 nafari esa tashkil etilgan oilaviy bolalar uylariga ota-ona qaramog'iga berilgan.Vaholanki, turli byurokratik to'siqlar sababli, ota-ona bo'lish istagida bo'lgan minglab oilalarga bu imkoniyatlar berilmaganligi achinarli holdir. Natijada, mehribonlik bolalar muassasalaridan bolalarni farzandlikka olish istagida bo'lgan oilalar soni kundan kunga oshib bormoqda..

Xususan 2021 -yilning 9 - avgust kunidan 2022 - yil 20 yanvar kuniga qadar 1301 nafar bolalar mehribonlik uylarida yashamoqda. 139 nafari esa o'z yaqin qarindoshlariga berilgan Shuningdek har bir oilada farzand tarbiyasiga katta ahamiyat berish kerak chunki farzandgaberiladigan tarbiya keying hayotiga asosiy o'rnini topishga yordam beradi.

Farzandga har doim e'tibor berishkerak unga qancha vaqt ajtatilsin u uchun kamlik qiladi. Oiladagi munosabatlar ta'sirida ilk bolalikdan umumuy ishga sodiqligi, vatanparvarlik,qat'iylik,qadr-qimmat hissi kabi yuksak insoniy hislar shakllana boshlaydi.Asta-sekin tug'ishganlarga g'amxo'rlik,aka-ukalar va opa-singillik mehri,ota-onalar muhabbat va shafqat kabi tuyg'ular namoyon bo'la boradi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Oila institutini mustahkamlash sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning

malakasini oshirish bo'yicha maxsus o'quv kurslari tashkil etish to'g'risidagi'' qarorida quyidagilar maxsus o'quv kurslarining asosiy vazifalari etib belgilansin; yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal qilishning huquqiy va psixologik asoslarini o'rgatish, ajrashishlarni oldini olish hamda oiladagi ma'naviy- axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash, oilaning farovonligi va xotirjamligini oshirish, zamonaviy namunali oilaning mezonlarini belgilashda ishtirok etish, oila-nikoh munosabatlari sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro tajribani o'rganish,-deya belgilanib qo'yilgan. Biz hozir bola tarbiyasidagi xatoliklardan ba'zilarini ko'rib chiqdik.Ming afsuski, bolani tarbiyalashda mana shunday xatoliklar ko'plab uchrab turadi. Bolani tarbiyalashda faqat ota-onalar emas balki ustozlarni ham o'rni bor. Ota-ona o'z bolasini ilmi, komil inson bo'lishini istasa bolasiga to'g'ri tarbiya beradi, o'qituvchi bilan doimo aloqada bo'ladi. O'z farzandini kamolotini ko'rishni istagan ota-ona hamma mas'uliyatni o'qituvchiga yuklamaydi, balki o'qituvchi bilan birga farzandini tarbiyasiga e'tibor beradi. Shuning uchun hamma birga harakat qilsa bola vatanparvarlik ruhida tarbiyalanadi. Shu sababli bolasini kamolotini ota- ona ustoz bilan hamkorlikda ish olib boradi va bolasini nazorat qiladi.

Xulosa qilib aytsak, bolaning kamol topishi uchun o'qituvchi ham, ota-ona ham xatto o'sha bolani o'zi ham harakat qilishi kerak bo'ladi. Samarali tarbiya uchun ota-ona ilmi tarbiyali bo'lishi lozim. Bolani tarbiyalashda ota-onaning o'rni beqiyosdir. Shuni ta'kidlash lozimki, bola tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullangan ota-onalarning farzandlari ta'lim muassasasida o'z imkoniyatlarini ko'rsata oladi. Ota-onalar bolalarini bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun uni o'zi xohlagan kasb egasi bo'lishi uchun bolalarni qo'llab quvvatlashi lozim. Ota-ona bolalariga har doim e'tibor berishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi